

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

MUNAQQID VA ADABIY TANQIDCHILIK MUAMMOLARI

Normat Yuldashev,
*Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya: Maqolada adabiyotshunos olim Qurdosh Qahramonovning munaqqidlik faoliyati, uning “Adabiy tanqid: yangilanish tamoyillari” monografiyasining adabiy tanqid rivojidadagi o‘rni masalalariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: tanqid, adabiy jarayon, metodologiya, monografiya, yangilanish, baholash, konsepsiya, tahlil, talqin.

Аннотация: В статье рассматривается деятельность литературоведа Курдоша Кахраманова как критика, роль его монографии “Литературная критика: принципы обновления” в развитии литературной критики.

Ключевые слова: критика, литературный процесс, методология, монография, обновление, оценка, концепция, анализ, интерпретация.

Abstract: The article focuses on literary critic Qurdosh Kahramanov’s work as a critic, the role of his monograph “Literary Criticism: Principles of Renewal” in the development of literary criticism.

Key words: criticism, literary process, methodology, monograph, update, evaluation, concept, analysis, interpretation.

Taniqli adabiyotshunos olim, yuzlaridan hamisha nur yog‘ilib turadigan kamtarin inson Qurdosh Qahramonov bilan ustoz-shogird, hammaslak, hamfikir bo‘lganimga o‘ttiz yildan oshdi. Men Qurdosh domla bilan 1992-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining aspiranturasida o‘qib yurgan yillarimda tanishganman. Domla o‘shanda institutning O‘zbek adabiyoti kafedrasida faoliyat ko‘satardi. Hozir ham shu kafedrada professor lavozimida o‘zbek filologiyasi talabalariga adabiyot sirlarini o‘rgatib kelmoqdalar. Uch yillik aspirantura tahsili, ilmiy izlanish jarayonlarida domla doimo o‘z maslahatlarini ayamay ilm sirlarini o‘rganishga da’vat etib kelganlar. Hozirda qadar ustoz-shogirdlik an’anasi davom etib kelmoqda.

E’tirof etish kerak, hozirgi adabiy jarayonda tanqid muammolari bilan bog‘liq hodisalarni Qurdosh Qahramonov ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Munaqqidning “Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti”, “Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari” monografiyalari, “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” hammualliflikda yaratgan darsligi bugungi adabiy jarayonda, ta’limda ilmiy metodologik manba sifatida o‘rganilib kelinmoqda.

Q.Qahramonovning “Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari” monografiyasi mustaqillikdan keyingi yillar adabiy tanqidchiligida yangilanish jarayonlarini

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

baholashda, bugungi tanqidning metodologik asoslarini belgilashda asosiy adabiyotlardan biridir. Ma’lumki, istiqoldan keyingi yillarda adabiy-nazariy qarashlardagi mezonlar o‘zgardi. Jahon badiiy tafakkurining ilg‘or an’analari milliy adabiyotimiz sahifalarida aks eta boshladi. Shu boisdan XX asr adabiyoti namoyandalari ijodini yangicha adabiy mezonlar asosida qayta baholashga ehtiyoj sezildi. Munaqqid o‘rinli ta’kidlaganidek, “XX asr o‘zbek adabiyoti salafлари, jumladan, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon, G‘.G‘ulom, Oybek, A. Qahhor, H.Olimjondek atoqli ijodkorlar hayoti va ijodini, umuman, ular mansub bo‘lgan davr adabiyotini qayta xolis baholash hamda ular qoldirgan boy adabiy merosga qadriyatlar sifatida yondashuv adabiy tanqid metodologiyasining muhim tamoyillaridan biriga aylanib bormoqda”¹.

Monografiyaning birinchi “Yangilanish jarayonlari va omillari” bobida munaqqid istiqoldan keyingi yillarda adabiy jarayonda muhim bo‘lgan maqola va kitoblar tahliliga e’tibor qaratadi. Muallif D. Quronovning “Adabiyot nadir yoxud Cho‘lponning mangu savoli”, U.Hamdanning “Yangilanish ehtiyoji” kitoblari tahlili jarayonida adabiy tanqid metodologiyasining yangilanib borayotganligini alohida ta’kidlaydi. Ma’lumki, XX asrning boshlarida jadidlar adabiyotni ma’lum ma’noda ijtimoiy hayotga yaqinlashtirdilar. Shu jihatdan D.Quronov maqolasida keltirilgan Cho‘lponning mangu savoli – adabiyotda shaxsiylik va ijtimoiylikning uyg‘unlashib borishini tadqiqotchi quyidagicha izohlaydi: “Asarning yaratilishi, ya’ni genetik jihatiga ko‘ra ijtimoiy hodisa, deya baholagan munaqqid fikricha, badiiy asarda ijtimoiylik bilan shaxsiylik qorishiq holda keladi, faqat ularning darajasi, nisbati turli asarlarda turlicha namoyon bo‘ladi”².

Mustaqillikdan keyingi yillarda nohaq qatag‘onga uchragan adiblar A.Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon ijodiga alohida e’tibor qaratildi. Bu sohada keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Monografiyaning ikkinchi bobida ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, A. Qodiriy ijodini yangicha mezonlar asosida baholashda A.Aliyev, S.Mirvaliyev, M.Qo‘shjonov, U.Normatov, B.Karimov, N.Boqiy, Z.Mirzayeva kabi olimlarning ilmiy ishlari tadqiqot obyekti qilib olingan. Ayniqsa, M.Qo‘shjonovning “O‘zbekning o‘zligi”, U.Normatovning “Qodiriy bog‘i”, B.Karimovning “Abdulla Qodiriy” kitoblari qodiriyshunoslikda yangi sahifa ochganligi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

¹ Q. Qahramonov. Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari. Toshent. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009. 24-bet.

² Q. Qahramonov. Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari. Toshent. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009. 45-bet.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Monografiyada istiqloldan keyingi yillarda Fitrat ijodi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari ham sarhisob qilingan. B.Qosimov, E.Karimov, N.Karimov, H.Boltaboyev, I.G‘aniyev, G.Rahimovning maqola va risolalari tahlilga tortilgan. Xususan, N.Karimovning “Mavlono Fitrat”, G.Rahimovning “Munozara” – uyg‘onish darakchisi”, H.Boltaboyevning “Noma‘lum Fitrat” maqolalari Fitrat ijodini o‘rganishdagi dadil qadamdardan biri bo‘lganligi alohida qayd etilgan. Ma‘lumki, istiqlol arafalaridan boshlab Cho‘lpon ijodini o‘rganishga ham alohida e‘tibor qaratildi. O.Sharafiddinova, N.Karimov, Sh.Turdiyev, B.Do‘stqorayev, S.Ahmad bilan bir qatorda D.Quronov, Z.Eshonova, U.Sultonov kabi yosh cho‘lponshunoslar yetishib chiqqanligi, ular Cho‘lpon ijodini o‘rganishda yangicha rakursda yondashganligi, bu sohada ko‘lamli ilmiy-tadqiqotlar yaratilganligi tahlil nazaridan o‘tkazilgan.

Mustaqillikdan keyingi yillar o‘zbek tanqidchiligida XX asr o‘zbek adabiyotining buyuk namoyandalari Oybek, G‘.G‘ulom, A.Qahhor, H.Olimjon ijodini yangicha metodologiya asosida qayta o‘rganishga ehtiyoj sezildi. Ayniqsa, ularning yuz yillik yubileylari munosabati bilan asarlari qayta nashr qilindi, hayoti va ijodi haqida ilmiy tadqiqot ishlari yaratildi. Xususan, Oybek ijodi haqida N.Karimovning “Oybek: “Tosh ekan boshim”, “Oybek va jadidchilik”, “Oybek nomli cho‘qqi”, O.Sharafiddinovning “Millatni uyg‘otgan adib” maqolalari yangi oybekshunoslikdagi o‘ziga xos jihatlarni qamrab olganligi haqida monografiyada mufassal fikr-mulohazalar bildirilgan.

XX asr milliy adabiyotimizning atoqli vakili G‘.G‘ulom ijodining asosiy qismi totalitar tuzum davriga to‘g‘ri keldi. Shu boisdan shoir ijodida qizil imperiya siyosati bilan bog‘liq asarlar salmog‘i ko‘p. 2003-yilda shoirning yuz yillik to‘yi bahonasida uning bir jildlik “Tanlangan asarlar”i nashr qilindi, shoir ijodi haqida ilmiy maqola, risola, monografiyalar e‘lon qilindi. Xususan, A.Oripovning “O‘zbekning o‘z shoiri”, A.Rasulovning “Go‘zallik nimada? Bir she‘r sharhi”, M.Olimovning “Men yetim o‘tganman”, B.Ro‘zimuhammadning “Kelajakka atalgan she‘rlar”, U.Normatovning “Shum bola” mafkuraviy – siyosiy tazyiq sharoitida ruh erkinligi” maqolalari, B.Nazarovning “G‘afur G‘ulom olami”, N.Karimovning “G‘afur G‘ulom ijodiyoti” kitoblari shoir ijodini yangicha metodologiya asosida o‘rganishda muhim bosqich bo‘lganligi monografiyada asoslangan.

Respublikamiz mustaqilligi arafalari va undan keyingi yillar adabiyotshunosligida Oybek, G‘.G‘ulom qatorida A.Qahhor ijodini ham qayta o‘rganishga ehtiyoj sezildi. Istiqlolgacha bo‘lgan davrda qahhorshunoslik sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini e‘tirof etgan holda, undan keyingi yillarda yangi qahhorshunoslik borasidagi ilmiy izlanishlarni ham alohida ta‘kidlab o‘tish

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

kerak. O.Sharafiddinovning “Ijodni anglash baxti”, U.Normatovning “Qahhorni anglash mashaqqati”, I.Haqqulovning “Abdulla Qahhor jasorati”, R.Qo‘chqorning “Istedod qadri”, “Men bilan munozara qilsangiz” kitoblari A.Qahhor ijodi haqidagi yangicha qarashlarni shakllantirishga xizmat qilganligi monografiyada o‘z talqinini topgan.

“Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari” kitobining uchinchi bobi “Adabiy tanqid va metodlar takomili”ga bag‘ishlangan. Bunda asosiy e’tibor badiiy asar tahlili jarayonlariga qaratiladi. Ayniqsa, munaqqid keyingi yillar milliy adabiy tanqidchiligimizda badiiy asar tahlilida sistemali yondashuvga e’tibor berilmayotganligi masalasiga e’tibor qaratar ekan, U.Jo‘raqulovning “Muammoning tuguni”, S.Sodiqning “Tanqidchiligimizning mashaqqatli yo‘li” maqolalarini tahlilga tortadi. Sistemali tahlilning mazmun-mohiyati xususida ilmiy-nazariy ma’lumotlar beradi. “Sistema metodologiyada butunlikni anglatuvchi falsafiy kategoriya sifatida anglashiladi. Sistema tushunchasi ilm – fanda, metodologiyada ikki tarkibiy qism – sistemali tahlil va sistemali yondashuvdan tashkil topgan”³ligi, sistemali tahlilning asosiy usullari – biografik, struktural, qiyosiy, germenevtik tahlilga ko‘proq e’tibor berilayotganligi ta’kidlab o‘tilgan. Ayniqsa, ijodkor ijodiy laboratoriyasini o‘rganishda biografik metod ko‘proq samara berayotganligi D.Quronovning “Cho‘lpon hayoti va ijodi”, R.Qo‘chqorning “Men bilan munozara qilsangiz” kitoblari tahlili jarayonida ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, adabiy tanqidda struktural tahlilning imkoniyatlari xususida ham ilmiy – nazariy ma’lumotlar berilgan. Bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borgan tanqidchilarning maqolalari tahlil ob’ekti qilib olingan. Jumladan, A.Rasulovning “Badiiylik – bezavol yangilik”, S. Melining “Strukturalizm va struktural tahlil haqida” maqolalari xususida struktural usulning badiiy asar tahlilidagi imkoniyatlari asoslab berilgan.

Hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida qo‘llanayotgan eng faol metodlardan biri – germenevtik talqinga ham alohida e’tibor berilayotganligi D.Quronovning “Cho‘lpon nasri poetikasi”, B.Karimovning “Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil, talqin” monografiyalari tahlili misolida asoslab berilgan. Bundan tashqari tadqiqotda mustaqillikdan keyingi yillar adabiy jarayonida muhim hodisalardan sanalgan modernizm va modern adabiyoti xususidagi bahslarga ham munosabat bildirilgan. Shuningdek, adabiy asarni o‘rganishda poetika muammolariga alohida e’tibor qaratilayotganligi, bu yo‘nalishda ko‘plab fundamental tadqiqotlar

³ Q. Qahramonov. Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari. Toshent. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009. 128-129-betlar.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

yaratilayotganligi tahlil nazaridan o‘tkazilgan. Umuman olganda, Q.Qahramonovning “Adabiy tanqid: yangilanish tamoyillari” monografiyasi mustaqillikdan keyingi yillar adabiy tanqidchiligining o‘ziga xos panoramasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Qurdoş Qahramonov bugungi kunda ham adabiy jarayonning qaynoq havosidan nafas olib hormay-tolmay faoliyat ko‘rsatib kemoqda. Ham olimlik, ham muallimlik, ham ustoz-shogirdlikni mushtarak olib bormoqdalar. Ustozning qutlug‘ yetmish yoshlari bilan muborak etib yanada yangidan yangi ijodiy parvozlar tilab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
2. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
3. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
4. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.
5. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
6. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.